

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tarix fakulteti dekani
_____ dots.G'oziyev S.X.
“ _____ ” _____ 2012 y.

5140600 – Tarix

**XIV-XV asrlarda Movarounnahrning etnik tarkibi
mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Jumanov O'tkir
Ilmiy rahbar: dots.A.Pardayev

Ishni himoyaga tavsiya etaman: dots.A.Pardayev

BMI “Umumiy tarix” kafedrasi yig'ilishining qarori bilan
(Qaror №____, «___»_____ 2012 y) himoyaga tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri v/b: o'q.F.Toshboyev

Jizzax - 2012

Himoya 2012 yil _____ kuni soat _____ da A.Qodiri nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti, Tarix fakulteti, Umumiy tarix kafedrasida bakalavr darajasini olish uchun bitiruv malakaviy ishlari himoyasi bo'yicha hay'at yig'ilishida o'tkaziladi.

(Manzil: Jizzax sh. Sh.Rashidov shoh ko'chasi 54.)

BMI bilan Jizzax davlat pedagogika instituti kutubxonasida tanishish mumkin. (Manzil: Jizzax sh. Sh.Rashidov shoh ko'chasi 54.)

Mavzu: XIV-XV asrlarda Movarounnahrning etnik tarkibi

Reja:

Kirish

I-Bob: XIV-XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar va uning Movarounnahr etnik tarkibiga ta'siri.

1.1. XIV-XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar.

1.2. XIV-XV asrlarda turkiy etnik guruhlarining Movarounnahrda joylashuvi.

II-Bob: XIV-XV asrlarda Movarounnahrda etnik jarayonlar va o'zbek adabiy tilining shakllanishi

2.1. XIV-XV asrlarda Movarounnahrda etnik jarayonlar

2.2. XIV-XV asrlarda Movarounnahrda o'zbek adabiy tilining shakllanishi

III-Bob: XIV-XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar va uning Movarounnahr etnik tarkibini o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va metodlardan foydalanish

3.1. Yangi ped. texnologiya asosida dars o'tish (kompyuter, proyektor, ekran va mavzuga oid slaydlar) ilova qilinadi.

3.2. Mavzuni o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I-Bob:XIV-XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar va uning Movarounnahr etnik tarkibiga ta'siri.

1.1.XIV-XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar.

XIII asr boshlariga kelib Markaziy Osiyoda siyosiy vaziyat bir muncha keskinlashgan edi. Xorazmshoh Muhammad Movarounnahrni egallaydi. 200 yil davomida bu hududda hukmronlik qilib kelgan g'arbiy qoraxonlar hukmronligi tugatiladi. Xorazmshoh Muhammad Dashtiqliq cho'qlariga, xususan Sirdaryoning quyi oqimlariga yurish qilib bu yerlarda yashovchi qipchoqlarni tobe etmoqchi bo'ladi. Lekin u qipchoqlarning to'sqinligiga uchragach, ularning ovullarini talab, ko'plarini qilich damidan o'tkazadilar.

Ayni shu davrda Ila daryo sohillarida yashovchi naymanlar kuchayib Kidan (qoraxitoy) davlati harobalarida yangi — nayman davlatini barpo qiladilar. Davlatni naymanlar boshlig'i Kuchluq boshqaradi.

Naymanlar Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi allaqachon islom dinini qabul qilgan elatlarni (qorakidan, karluq qipchoq, qangli va boshq.) tobe etmoqchi bo'lib ularga qarshi harbiy yurish qiladilar. Naymanlar bu hududda yashovchi musulmonlarni ta'qib etib, ularni ovul va qishloklarini vayron qilib, mol-mulklarini talon-taroj qiladilar. Bu ko'rgulikka bardosh berolmagan musulmonlarning talay qismi uz yurtlarini tashlab, har yoqda tarqalib ketishga majbur bo'ladilar. Ayrim qabila (masalan qarluq, qangli) sardorlari naymanlar zulmidan kutilish yo'lini ahtarib, mo'ng'ullar xoni — Chingizxon bilan yaqinlashishga, undan madad so'rashga harakat qilganlar.

Naymanlarga, ularning boshlig'i Kuchlukka qarshi harbiy yurish boshlash uchun bu iltimoslar Chingizxonga qo'l kelgan albatta. O'tror

fojiasi esa uning g'arbiy mintaqalarga bostirib kirishi uchun bahona bo'lgan.

Mo'ng'ullarning bosqini XIII asrning birinchi choragida yuz bergan eng mudhish fojea bo'lgan. Ular Markaziy Osiyoga, jumladan Movarounnahr, Xorazmga bosib kirib qishloq, va shaharlarini harobaga, ekin yerlarini esa yaylovga aylantirdilar. Aholini talab kirib, qullarini bandi qilib Mo'ng'ulistonga haydab ketadilar. Movarounnahr va unga tutash mintaqalarning aholisi keskin kamayib ketadi. Ayrim shaharlar aholisining (masalan Samarqandni) faqat to'rt dan biri qolgan edi, xolos.

Jon saqlab qolgan mahalliy xalq (o'zbek va tojiklar) og'ir iqtisodiy sharoitda yashaganlar. Qishloq aholisi bir necha yillar davomida unumli dehqonchilik qilolmaganlar. Molidan, yervdan ajralgan xalqqa dehqonchilikni yo'lga qo'yish qiyin bo'lgan. Ziroatchilikdan hosil olgan taqdirda ham mo'ng'ullar katta o'lpon solib yetishtirilgan hosilning talay qismini tortib olganlar. Voha atroflarida ko'chib yurgan chorvadorlar soni ham keskin kamayib kettan. Chorvadorlarning mol-mulkklarini musodara qilib, ularning ko'plari mo'ng'ullarga asirga tushib zulm-sitamda o'lib ketganlar. Shunday qilib mo'ng'ullar bosqini yerli aholi boshiga og'ir kulfat keltirgan edi.

Mo'ng'ullar bosqinidan keyin Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi qariyb yarim asr davomida etnik tarkibini tiklay olmagan. Vohalardagi kamchil aholining etnik tarkibi deyarli o'zgarmadi. Mahalliy aholining asosini oldingi davrlardagidek turg'un aholi tashkil qilgan. Mazkur hududlarda yashab kelgan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq qavmlar o'troqlashib, mahalliy aholi bilan aralashib, ko'plari o'z etnik nomlarini uno'tib yuborgan bo'lsalar keraq Yangi etnik guruhlar ancha vaqtlargacha Movarounnahr hududiga ko'chib kelmagan.

Ma'lumki, XIII asrning 60-yillariga kelib Mo'ng'ul imperiyasi yemirila

boshlashi natijasida Chig'atoy davlati vujudga kelgan edi. Bu davlat Ila daryosining janubi-sharqiy mintaqalaridan to Amudaryogacha bo'lgan katta hududni o'z ichiga olgan bo'lsada, Chig'atoy davlati barqarorlashgan davlat emas edi. Chig'atoy vorislarining hokimiyat uchun olib borgan muntazam kurashlari natijasida mazkur davlat XIV asrning 40-yillariga kelib ikki — sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketdi. Bunda Sirdaryo har ikkala davlat o'rtasidagi chegara bo'lib qoldi.

Shu davrdan boshlab mamlakatning sharqiy qismi «Mo'ng'uliston» yoki Jets deb atalgan. Bu hududda yashovchi mo'ng'ul qabilalari XIII—XIV asr o'rtalarigacha til jihatidan batamom turkiylashgan edilar. Turkiylashgan mo'ng'ul qavmlari tarixiy manba'larda «mug'ul» deb nomlangan.

Movarounnahr va unga qo'shni hududlarga ayrim etnik guruhlar XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab kela boshlaydilar. Bu davrda jaloyir, barlos, qavchin va arlat etnik guruhlar birinchilardan bo'lib kelganlar.

Jaloyirlar Angren havzasiga va Xo'jand atroflariga kelib o'rnishadilar. Rashid addin va Abulg'oziy ma'lumotlaridan aniqlanishicha jaloyirlarning ilk ajdodlari Onon daryosi havzalarida yashaganlar. XIII asrning birinchi choraklarida bularning bir qismi Ila daryo havzasiga kelib o'rnishadilar. Shu asrning 60-yillari ularning ayrim guruhlar, yuqorida aytilganidek, Angren vohasiga kelib joylashgan.

Rashid ad-din jaloyirlarni mo'ng'ul deb ataluvchi turk qabilalari qatorida tilga olgan. Muarrixning aytganlariga asoslanadigan bo'lsak, jaloyirlar qadimda turkiy qabilalardan bo'lib keyin mo'ng'ul tilini qabul qilgan, degan fikrga kelish mumkin. Ammo yirik olimlar V.V.Bartold, I.P.Petrushevskiylar jaloyirlarni mo'ng'ul tilli xalq bo'lgan deyдилar.

Tilshunos olim S.A.Amanjulov qator dalillar asosida jaloyirlarning asosiy negizi turklar bo'lgan degan xulosaga kelgan. Darhaqiqat muallifning aytganlarida jon bor. Rashid ad-din jaloyir qabilasining

tarkibida quriqin (bo'ri), tulangit, turi (bo'ri) etnonimlarni tilga oladi.

Ma'lumki, quriqin yoqut va yenisey qirg'izlar (xakaslar)ning ilk ajdodlari hisoblangan bo'lib, ular turkiy xalqlar edilar. Tulengiy tele (telengit) atamasi qadimgi turkiy qabila ittifoqining nomi. Melodiy IV—V asrlarda bu etnos 11 ta qabilani birlashtirgan yirik etnik uyushma bo'lgan. Telengitlarning keyingi avlodlari hozir ham (telengit, teles, teleut nomlari bilan) Oltoyda va Sibirning bir necha mintaqalarida saqlanib qolgan. Bo'ri esa turkiy xalqlarning totemi edi.

Keltirilgan tarixiy ma'lumotlarni inobatga olib, telengit, quriqin va turilar turkiy xalqlar bo'lgan, desak, unda jaloyir qabila ittifoqining negizini turkiy xalqlardan tashkil topganligiga shubxa qolmasa kerak. Keyinchalik jaloyirlarning ajdodlari mo'ng'ul tilli xalqlar ta'siriga tushishi natijasidagina yashab, mo'ng'ul deb atagan bo'lishlari mumkin. Lekin Mug'ilistonga (sharqiy Turkistonga) va keyinchalik (XIII asrning 60-yillarida) Angren vohasiga ko'chib kelgan jaloyirlarning tili turkiy til edi.

Jaloyirlar Amir Temurning harbiy yurishlarida qatnashganlar. Sohibkiron 1375 yili, Mo'ng'uliston (Sharqiy Turkiston, Yettisuv)ga harbiy yurish boshlaganda o'g'li Jahongirni manglay ilg'or qilib yuboradi. Jahongir qo'shinlari tarkibida jaloyirlar boshlig'i Baxrom nomli kishining o'g'li Odilshoh ham bo'lgan. Otasining o'limidan keyin Sohibqiron Odilshoxni jaloyir qabilasiga boshliq qilib tayinlaydi. Bu shaxs

Lekin ko'p vaqt o'tmay Odilshoh hiyonat yo'liga o'tadi. Ma'lumki, Sohibqiron XIV asrning 70-yillari Xorazm vohasiga bir necha marotaba harbiy yurish qilgan. Shu harbiy yurishlardan birida Samarqand shahrida katta harbiy kuch (garnizon) qoldirilmaganligidan foydalanib Odilshoh, elchi Bug'a hamda Saribug'a qipchoq bilan birlashib Samarqandga yurish qiladi. Lekin ular shaharni ololmaydilar. Shahar aholisi shaharni jiddiy mudofaa qilib uni dushmandan saqlaydilar.

Isyondan habar topgan Amir Temur tezda Xorazmdan orqaga qaytadi. Jahongir Mirzo jangovar qismi bilan isyonkorlarni Karmana yaqinida uchratib, ularga qaqshatqich zarba beradi. Jangda yengilgan jaloyirlar va qipchoqlar Dashtiqipchoqda qochib jon saqlaganlar. Shu jangdan keyin sohibqiron jaloyirlar ulusini tarqatib yuboradi. Lekin shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki jaloyirlarning ma'lum qismi o'z hududlarida qolib sohibqironga sidqidildan xizmat qilganlar.

Barloslarning vatani Onon va Kerulen daryosi havzalarida bo'lgan. Chingizxon davrida ular yirik va ishonchli harbiy kuchga ega edilar. Uning eng ishonchli kishilaridan biri Kubalay nayon bo'lgan. U o'z vaqtining tarxonlik unvoniga ega bo'lib, yirik harbiy lavozimlarni egallagan. Chingizxonning nufuzli amirlaridan yana biri Qorachur noyon edi, bu kishi ham barloslardan bo'lgan. Qorachur Amir Temur ajdodlarining beshinchi (katta bobosi) bo'lgan.

Chingizxon vorislari davrida barloslarning bir qismi Ila daryosining chap sohillariga, Sharqiy Turkistonning g'arbiy hududlariga, Qoshg'ar viloyatiga kelib joylashgan edi. Ushbu barloslarning boshlash XV asrda Mirzo nomli kishi bo'lib Muhammad Xaydarning tog'asi bo'lgan.

Ila daryo bo'ylarida, Sharqiy Turkistonda yashovchi barloslarning bir qismi XIII asrning 60-yillari Shahrisabz vohasida istiqomat qiladilar. Barloslarning ushbu guruhi Amir Temurning qavmdoshlari bo'lib unga sadoqat bilan xizmat qilganlar. Bobur Mirzo va Temur davrida Shahrisabz barloslarining ayrim guruxlari Tojikistonning janubiy hududlariga, Afg'onistonga, Hindistonga va Kashmirga borib o'rnashib qolganlar.

Barloslarning chiqib kelish tarixi muammoli bo'lib kelmokda. V.V.Bartold barloslarni mo'ng'ul tilli xalqlardan bo'lgan degan fikr yuritadi. Rashid-ad-din barloslarning ilk ajdodlarini turklar bo'lgan, keyin mo'ng'ul nomini olgan nurun qabila ittifoqi tarkibida tilga oladi. Agar

uning aytganlarini to'g'ri tushunilsa barloslarning ajdodlari turkiy xalqlar bo'lganligiga ishonch hosil qilsa bo'ladi. Bular ko'p vaqtlar mo'ng'ullar bilan birga yashab ularni tilini (mo'ng'ul tilini) ham o'zlashtirgan bo'lishlari mumkin. Xitoyshunos olim A.Yu.Zuyev Xitoy manbalarini tahlil qilib, barloslarni turkiy xalq bo'lgan degan xulosaga kelgan edi.

Bizgacha yetib kelgan O'zbekiston va Tojikistonda yashovchi barloslar o'zlarini turk-barlos deb ataydilar. Bularning tili qarluq laxjasiga juda yaqin.

Keltirilgan barcha fikr-mulohazalarga asoslanib barloslarning chiqib kelishi turkiy etnoslar bilan bevosita bogliq bo'lgan, desak xato bo'lmas. Qadvchin va arlot etnik guruhleri ham XIII asrning 60-yillari Movarounnahrga ko'chib kelib o'rnashgan qavmlardan, degan edik yuqorida.

Qavchinlar Farg'ona vodiysiga va Qashqadaryo viloyatiga, G'uzor atroflariga kelib o'rnashgan edilar. Qavchinlarning ayrim guruhleri Qashg'arda ham yashagan bo'lishi kerak. Mirzo Muhammad Xaydar Qashg'ar va Xutonda yashovchi aholini to'rt guruhga bo'linganligini qayd qilgan edi. Shu guruhlardan biri qavchinlar bo'lgan. Uning nazarida «qavchin» atamasi harbiy degan ma'noni anglatadi. Bularni «Mening ajdodlarim boshqarganlar» deb yozadi Mirzo Haydar. Qavchinlar (hususan ularning chiqib kelishlari) haqida boshqa aniq, ma'lumotlarga ega emasmiz.

Arlotlarning ilk bor yashagan joylari Mo'ng'ulistonda bo'lgan. Rashid addin arlotlarni haqiqiy mo'ng'ul qavmlari qatorida tilga oladi. Uning yozishicha arlot kishi nomi bo'lgan. Arlot qabilasi shu (Arlot nomli) kishidan nom olgan. Abulg'oziy ham bu fikrni takrorlaydi.

XIII asrning birinchi choraklarida arlotlarning bir qismi Mo'ng'ulistondan kelib, hududga o'rnashadilar. Bu hududda yashab, arlotlar o'z tillarini asta-sekin uno'tib, turkiy tilini qabul qiladilar. Shu asrning 60-yillari Yettisuv arlotlarining bir guruhi ko'chib kelib, Surxondaryo viloyatining janubida,

Termiz atroflarida va Afg'onistonning shimoliy mintaqalarida yashaydilar. Arlotlar ushbu guruhi keyinchalik Amir Temurga sadoqat bilan xizmat qilib, uning harbiy yurishlarida qatnashadilar.

Arlotlarning (sharqiy Chig'atoy) ulusida Mung'ulistonda qolgan guruhlar mo'ng'ul xonlarining hukmronligida yuqori mansablarni egallagan edilar. Lekin ayrim mo'ng'ul hukmronlari arlotlarni uncha yoktirmas edilar. Mo'ng'ulistonning katta qismiga o'z hukmronligini (XVI asr) boshida o'rnashgan Sulton Ahmad (Yunusxonning kichik o'g'li) mo'ng'ul amirlarini, jumladan arlotlarni ham, mansablaridan chetlashtiradi.

Chig'atoy ulusining sharqiy qismida (Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda) yashovchi mo'ng'ul qabilalari turklashgan bo'lishlariga qaramasdan, qadimgi mo'ng'ul an'analarini xanuzgacha saqlab, ularga amal qilib kelganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, ular Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida (Movarounnahrda) yashovchi qardosh qavmlarini mensimasdan karaunas, ya'ni, aralashgan (metis) xalq, deb ataganlar. Keyingilar ham o'z navbatida Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi mo'ng'ul qabilalarni pisand qilmay jete (jeta), ya'ni bosqinchilar deganlar.

Movarounnahrda yashovchi turklashgan mo'ng'ullar asta-sekin «mo'ng'ul» atamasini ham esdan chiqarib, o'zlarini «chig'atoy» deb nomlaganlar. Keyinchalik bu nom Movarounnahr aholisi o'rtasida keyingi vakillari hukmronlik qilayotgan kezlarda hududda, son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilgan o'zbek va tojiklar o'zlarini chig'atoy deb ataganlar.

Mo'ng'ullar hukmronligi davrida (XIII—XIV asrning birinchi yarmi) Movarounnahrda mo'ng'ul va turklashgan mo'ng'ul qabilalarining ko'chib kelishi jadallashadi. Shu asrlarda olchin, dug'lat, mo'ng'ul, sulduz, uyrot, baxrin, markit, mang'it, qo'ng'rot va boshqa qavmlarning ayrim guruhlar ko'chib kelgan. Lekin ular son jihatidan yerli aholiga nisbatan uncha ko'p bo'lmagan. Bu qabilalar ko'chmanchilikda kun kechirgan. Mahalliy aholi

ta'sirida ularning aksariy ko'pchiligi shu asrlarda yarim o'troqlikka o'tib, chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik ham qilganlar.

Movarounnahrda ko'chib kelgan mo'ng'ul qabilalari shu darajada turklashgan edilarki, ular XIV asrning o'rtalarida o'z tillarini batamom uno'tib turkiy tilda so'zlashar edilar.

XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga kelgan arab sayyoxi Ibn Batuta axborotidan ma'lum bo'lishicha, Chig'atoy ulusi g'arbiy qismining sultoni Kebek (1318—1326) va Ala a-Din Tarmashirin (1326—1334) turk tilida erkin so'zlashganlar.

1.2.XIV-XV asrlarda turkiy etnik guruhlarining Movarounnahrda joylashuvi.

XIII—XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash viloyatlarga kelib o'rnashgan qavmlar uncha yirik etnik guruhlar bo'lmagan. Ma'lumki turkiy va turklashgan mo'ng'ul guruhlarining ko'pchiligi Movarounnahrda kelmasdan oldin Dashtiqipchoqda, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashaganlar. Bu hududlarda ular parchalanib kichik-kichik gypsyhlapga bo'linib ketgan edilar. Ularning katta qismi yashab turgan hududlarda qolib turli etno-siyosiy birliklar tarkibiga kirib, o'z joylarida qolgan edilar. Ulardan ajralib chiqqan guruhlar Ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'idagi viloyatlarga, Xorazmda va Toshkent vohasiga kelib o'rnashgan edilar. Misol uchun qipchoqlarni olaylik. Yirik qipchoq etnik birligi mo'ng'ullar davrida guruhlariga bo'linib ketgan edi. XIV—XV asrlarda qipchoq. etnik guruhlari, Shimoliy Kavkazda, Qrimda, Volga buylarida, Ural tog' oldi mintaqalarida, Dashtiqipchoqning sharqiy qismida, Yettisuvda yashar edilar. Sirdaryo sohillarida yashovchi qipchoqlarning bir guruhi Amir Temur tomonidan Movarounnahrda kuchirilgan. Bular hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy

tumanlariga va Afgonistonning shimoliy hududlariga o'rnashgan edilar. Sohibqironning xos novkarlari qatorida tilga olingan qipchoqlar aynan shu qipchoqlardan bo'lishi keraq Movarounnahr va unga tutash mintaqalarga har yerlardan kelib o'rnashgan etnik guruhlar mo'ng'ullar hukmronligi davrida kamayib ketgan mahalliy aholi-ning son jixatdan biroz ko'payishida ma'lum rol uynagan albatta. Lekin ular mahalliy aholining etnik tarkibini tubdan uzgartira olmaganlar.

Ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'idagi Xorazmda va Toshkent vohasi aholisining asosini Amir Temur va Temuriylar davrida ham tub yerli aholi tashkil qilgan. Muqim yashovchi o'zbek aholisi ko'p asrlar davomida turkiy etnoslarning sug'd-tojik va boshqa xalqlar bilan aralashib, qorishib borishi jarayonida shakllanganligini yuqorida aytib o'tgan edi. Bu jarayon XIV—XV asrlarda va undan keyingi asrlarda ham davom qilgan.

Turg'un yashovchi mahalliy aholining asosiy qismini o'zbek va tojiklar tashkil qilgan. Bular oldingi asrlardagidek bu asrlarda ham dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan, qisman chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Farg'ona, Toshkent va Xorazm vohasi aholisining katta qismi o'zlarini sart deb ataganlar. So'zsiz sart atamasi etnik nom emas, bu atama muqim yashovchi aholining yig'indi nomi bo'lgan. Muqim yashovchi aholining ma'lum qismi uzlarini yashab turgan joy nomlari bilan ham ataganlar. Masalan ikki notanish kishi uchrashib qolishsa biri ikkinchisidan «siz qayerlik» deb, keyingisi esa «men buxorolik yoki andijonlik», deb javob berishi mumkin edi.

Turg'un aholining ayrim guruhleri turk etnik nomi bilan ma'lum edi. Turk xoqonligi inqirozga uchragach turk elati tarqalib ketgan. Mazkur elatning ozroq qismini turk etnik nomini saqlab qolgan. XIV—XV asr va keyingi asrlarda turk etnik nomi bilan atalib kelgan guruhlar ilk o'rta

asrlarda parchalanib ketgan turk elatining keyingi avlodlari edilar. Bular asosan Farg'onadan Zarafshonning tog' oldi mintaqalarida, hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tumanlarida yashaganlar. Turklarning ko'pchiligi asrlar davomida mahalliy o'zbek aholisi bilan aralashib, qorishib ketgan. Lekin ularning ayrim guruhlar yaqin vaqtlargacha o'zlarini turk etnik nom bilan atab kelganlar. Bu turklar yarim o'troqlikda yashab an'anaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullangan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Amir Temur va uning vorislari davrida yozilgan tarixiy asarlarda «turk» yoki «turk elati» iboralari uchraydi. Bu iboralar bilan o'sha davr tarixchilari Movarounnahrda yashovchi barcha turkiyzabon (biz tilga olgan turk etnik guruhlar ham shuning ichida) aholini nazarda tutgan bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda «turk» yoki «turk elati» turk etnik guruhga nisbatan keng ma'noda qo'llanilgan.

Yuqorida aytganlarimizga asoslanib yana bir marotaba ta'kidlab o'tmoqchimizki. Movarounnahrda XIV— XV asrlarda yashagan turkiyzabon etnosning ko'pchiligini muqim yashovchi mahalliy aholi tashkil qilgan. Qaysi nom bilan nomlanishidan qat'i nazar, bular allaqachonlar etnik birlik bo'lib shakllangan va keyinchalik o'zbek nomini olgan, uzoq tarixga ega bo'lgan xalq edi.

Mo'ng'ullar hukmronligi davrida, ular tomonidan mahalliy aholiga nisbatan ko'rsatgan hakoratlar, xo'rliklar, talon-tarojlar orqada qolgan bo'ladi. Lekin bosqinchilarning azob-uqubatlari xalqning dilida o'chmas jarohat izi bo'lib abadiy qoldi. Temur va temuriylar davrida o'zbek xalqi erkin nafas olaboshladi. Mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti rivojlandi, xalq farovonligi yaxshilandi. Ilmu fan taraqqiy etadi. Yangi-yangi olimu fuzalolar, ilm shaydolari paydo bo'ladi. So'zsiz bu yangi davr

taraqqiyoti yurtning otasi sohibqiron Amir Temur nomi bilan bevosita bog'liq edi.

Adabiy tilning oldingi asrlarga nisbatan rivojlangan turi shakllanadi. Bu adabiy til, tilshunoslikka oid adabiyotlarda «turkiy» yoki «chig'atoy» tili deb nomlangan.

Taraqqiy etgan o'zbek adabiy tili Alisher Navoiy davrida (XV asrning ikkinchi yarmida) eng yuqori nuqtaga ko'tarildi. Navoiy davri adabiy tilining asosini Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda ko'plab mavjud bo'lib kelgan turkiy til tashkil qilgan edi. Bobur Mirzo Andijon axolisi haqida gapirib shunday yozadi: «Eli turkdur, shahar va bozorlarida turki bilmas kishi yo'qdur. Elining lafzi qalam bilan rostdur. Aning uchun Mir Alisher Navoiyning musannafoti bavujudikim Xirida (Xirotda — Q Sh.) nash'u noma topibtur, bu til bilandur». Ammo xalqning jonli tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy tildan bir muncha farq qilgan. Adabiy til tarkibida aynan shu asrlarda tojik va arab so'zlari ko'paygan. Xalqning jonli tilida uchta asosiy sheva — karluq, qipchoq va ug'uz dialektlari mavjud edi. Bulardan tashqari ayrim qabilaviy laxjalar ham bo'lgan albatta.

O'zbek adabiy va jonli tili tojik tili bilan yaqin aloqalar natijasida rivojlangan. Ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'ida yashovchi aholining (Xususan Buxoro vohasida Samarqand va uning atroflari, Farg'ona vohasining bir qancha qishloqlarida) turkiy tilda so'zlashuvchi aholining ma'lum qismi tojik tilida ham erkin so'zlasha bilganlar. O'qimishli o'zbeklar tojik tilida ham yozganlar, adabiy va tarixiy asarlar yaratganlar. Alisher Navoiy aytganidek turkiylarning barchasi - yoshlar, qarilar, xizmatchilar va beklar sart tilini tushunganlar; ular bu tilni shu darajada bilardilarki, qiynalib qolganlarida gaplarini tushuntirib bera olardilar. Ularning ayrimlari esa bu tilda ustalik bilan gaplashardilar. Turk shoirlari bu tilda nozik she'rlar yozardilar va nutq so'zlardilar. Mahalliy aholidan

tashqari Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda oldingi (VIII—XIII) asrlar davomida kelib oʻrnashgan turkiy etnik guruhlar (yaz, uz, argu (argun), tuxsi, yagmo, dulu (dugʻlat), karluq, chigil, xalach, turkesh, qangʻli, qipchoq, ugʻuz va boshqalar) ham yashaganligi hakida oldingi boblarda gapirilgan edi. Movarounnahrda bulardan oldinroq kelib yashagan ayrim qavmlar (masalan, az, ul, tuxsi) mahalliy aholiga aralashib, oʻz etnik nomlarini unoʻtib yuborgan edilar. Ammo bularning Dashtiqipchoqda, Yettisuvda yashovchi guruhleri esa XIV—XV va keyingi asrlarda ham yashab bu hududlarda yuz bergan siyosiy voqyealarda faol qatnashib kelgan.

Shu asrlarda Movarounnahrda yashovchi salmoqli etnik guruhlar qarluk, chigil, xalachi, argʻin, qipchoq, ugʻuz qavmlari edilar. Bularning ham koʻpchilik qismi XIV—XV asrlar davomida turgʻunlashib, mahalliy aholiga aralashib ketgan edi. Ularning faqat uncha katta boʻlmagan guruhleri yarim oʻtroqlikda yashab dehqonchilik bilan bir vaqtda anʻanaviy mashgʻulotlari — chorvachilik bilan shugʻullanib kelganlar.

Qangʻlilar — qadimgi qangʻar elatining keyingi avlodlari. Chingizxon bosqinigacha bularning ayrim guruhleri Xorazmda, Samarqand shahrida va uning atroflarida yashar edilar. Bularning asosiy qismi Dashtiqipchoqda, Balxash koʻli atrofida, Ila daryo sohillarida koʻchib yurganlar. Amir Temur hukmronlik qilgan yillari qangʻlilarning uncha katta boʻlmagan guruhleri Dashtiqipchoqdan Zarafshon, Toshkent vohasiga koʻchib kelib oʻrnashgan. XIV—XV asrlarda esa ular oʻtroqlashib mahalliy aholiga aralashib ketgan.

Qarluqlar XIV—XV asrlarda ikki etnik qatlamdan iborat edilar. Birinchi qatlam Fargʻonada, Toshkent vohasida, Toharistonda milodiy VI asrdan buyon yashab kelgan qavmlar boʻlgan. Bular asrlar davomida mahalliy aholiga aralashib, asosan dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shugʻullanib kelganlar. Lekin bular oʻz etnik nomlarini unutmay (qarluq nomini) saqlab kelgan edilar.

Ikkinchi qatlam mo'ng'ullar hukmronligi davrida (XIII—XIV asrning 60-yillari) tashkil topgan. Shu asrlarda qarluqlarning ayrim guruhleri Ila daryo sohillaridan va Yettisuvdan ko'chib Toshkent va Zarafshon vohalariga, O'zbekistan va Tojikistonning janubiy viloyatlariga kelib o'rtnashib, bu yerlarda oldindan yashagan qarluqlar bilan qo'shilgan edilar. Qarluqlarning bir guruhi XV asrlarda Farg'ona vodiysida yashagan. Qarluqlarning ma'lum qismi shu asrda Dashtiqipchoqda ko'chib yurgan. Bu qarluqlar Shayboniynonning bobosi — Abulxayrxonning Irtish bo'ylaridagi Tura (Tori) shahrini egallashda ko'maklashganlar. Ana shu qarluqlar Shayboniynonning Movarounnahrni egallash uchun olib borgan harbiy yurishlarida ham faol qatnashgan.

Qarluqlarning yana bir guruhi XIV asrda Taroz shahri bilan Sirdaryo o'rtasidagi yaylovlarda ko'chib yurganlar.

Qarluqlarga qardosh xalach va chigil etnik guruhleri ham XIV—XV asrlarda Zarafshon vohasida va Toxaristonda yashar edilar. Bular o'z vaqtida Movarounnahrning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Ammo keyingi asrda (XIII asr) mug'ullar qirg'iniga uchrab, keskin kamayib ketgan. Ularning omon qolganleri o'troqlashib, mahalliy aholiga aralashib ketgan. Xalach va chigillarning ma'lum qismi o'z etnik nomlarini bizgacha saqlab kelgan.

XIV—XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda yashovchi salmoqli etnoslardan biri arginlar bo'lgan. Bularning ajdodleri VIII—XII asrlar davomida ko'chib kelib Toshkent vohasida, Farg'ona vodiysida (O'zgan atroflarida)³, Zarafshon vohasida va xzirgi Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida yashaganlar. Arginlarning ba'zi guruhleri uguzlar tar-kibida bo'lib XI asrlarda Xuroson hududiga borib o'rtnashganlar. Bu asrlarda kelgan arginlarning anchasi o'troqdashib ketgan edi. Shunga qaramasdan bo'larning salmokdi qismi XIV—XV asrlarda Movarounnahrda yashagan. Bular asosan Farg'ona vodiysida, Surxon-Sherobod vodiysida va Afg'onistonda o'rtnashgan edilar.

Arginlar Amir Temurni tan olgan qirqta o'zbek qavmlaridan biri bo'lgan Arginlarning urug' va qavm boshliqlari Temur va Temuriylarning eng ishonchli kishilaridan edilar. Jahongir davrida bular juda katta imtiyozli yer egalari — Tarxonlar hisoblanganlar. Bulardan chiqqan amirlar ayrim viloyatlarda hokimlik qilganlar. Masalan, Sulton Xasayn Qorako'l tumanining hokimi, Mahmud Muqim — Qobul hokimi va boshqalar. Arginlarning yuqori tabaqadagi kishilari Temuriylar xonadoni bilan qarindoshlik munosabatida ham bo'lib kelganlar.

Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgach (XV asr oxiri — XVI asr) arginlarning oldingi mavqeyi pasayib, mamlakatning siyosiy hayotiga deyarli aralashmaganlar. Ular o'troqlashib turg'un aholi tarkibiga kirib, qorishib ketganlar. Arginlarning juda oz qismi yarim o'troqlikda hayot kechirib, keyingi asrlarda ham Movarounnahr hududida yashagan.

XIV—XV asrlarda Movarounnahrda yashagan etnik guruhlardan yana biri dug'latlar edilar. Rashid ad-Din ularni mo'ng'ul deb nomlangan turkiy qabilalar qatorida tilga oladi. V.V.Bartold duglat mo'ng'ul qabilasi deydi. Bizningcha aslida bunday bo'lmasa kerak.

Yuqoridagi boblarda g'arbiy turk xoqonligidagi yirik qabila ittifoqlaridan biri dulu haqida gapirgan edik. N.A.Aristovning dulu va dug'lat bir xalqning nomi degan fikrini ham eslab o'tgan edik. Olimning bu fikrini to'g'ri deb bilsak, unda dug'lat (dulular) qadimgi turkiy qavmlardan biri ekanligiga ishonch hosil qilgan bo'lamiz.

Ma'lumki turk xoqonligi inqirozga uchragandan keyin dulularning ayrim guruhleri o'z yurtlarini tashlab boshqa yurtlarga borib yashaydilar. Lekin ularning ma'lum qismi ajdodlari yashagan hududlarda (Ila vohasida, Yettisuvda) qolib keyinchalik dug'lat nomi bilan tarixiy manbalarda qayd etilgan bo'lishi kerak. Tarixdan ma'lumki Chingizxon o'limidan oldin, hukmronlik qilgan mamlakatlarni o'g'illariga bo'lib bergan. Bunda

Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga Ila vohasi, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Turkiston (Turkiston shaxri haqida gap ketayapti shekilli) va Movarounnahr tekkan edi. Ko'rinib turibdiki, dug'lat (dulular) yashagan yerlar ham Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan.

Chig'atoyga tekkan yerlar qatorida Manglay Suba (quyosh tomonga qaragan yer — Q Sh.), mulki ham bo'lgan.

Mazkur mulk Shosh, Chalish, Issiqko'l va Sarig'-uyg'urlari hududlari bilan chegaradosh edi. Qashg'ar va Xuton ham Manglay Sub tarkibiga kirgan. Shunday katta hududni qamrab olgan mulkni boshqarishni Chig'atoy dug'latlarga topshirgan.

Bu mulkning birinchi hukmroni Amir Boydagan bo'lgan. Undan keyin bu mulk uning vorislariga meros bo'lib, nasldan-naslga, asrdan-asrga o'tib XVI asr o'rtalarigacha yetib kelgan. Ta'kidlab o'tish joizki Amir Boydaganning keyingi vorislari davrida mulkning chegarasi kisqarib faqat Qashg'ar bilan chegaralanib qolgan.

Duglatlarning ayrim guruhleri XIV—XV asrlarda Movarounnahrda kelib o'rnashgan. Bo'lar Farg'onada, Samarqand, Qorategin, Xisor va boshqa viloyatlarda tarqoq holda yashaganliklari Boburning «Boburnoma» asarida eslatilgan. Xisorda yashovchi dug'lat sultonlari Boburga beg'araz xizmat qilganlar.

Movarounnahrda yashovchi etnik guruhlardan biri ug'uz-saljuqlar edilar. Bular asosan Nurota tog' etaklarida, unga tutash cho'llarda yashaganlar. O'g'uz saljuq guruhleri bu hududlarga VIII—X asrlar davomida kelib o'nashgan.

O'g'uz saljuqlardan ajralgan turkman guruhleri XI—XII asrlarda Buxoro atroflarida ham yashagan. Samani (XII asr) ma'lumotiga qaraganda turkmanlarning bir guruhi Buxoro shahrining janubiy qismida Al-jadida qishlog'ida joylashgan.

Bular bu yerga Sirdaryo sohilidagi Jend shahridan, uning atroflaridan kelgan bo'lishlari kerak. Boykand yaqinidagi Samani davrida harobaga aylangan rabotlarda ham bir necha turkman oilalari yashagan.

XI asr boshlarida o'g'uz-saljuqlarning katta guruhi Xurosonga va Balx hududiga borib shaydilar keyinchalik o'g'uz-saljuqlar g'arbga siljib Old Osiyodagi qator mamlakatlarini tobe etadilar. (Bu haqda yuqorida gapirilgan edi). XIV—XV asrlar davomida Dashtiqipchoqdan va boshqa hududlardan Movarounnahrga yana bir-qancha o'g'uz, saljuq-turkman guruhleri ko'chib keladi. Ayni shu asrlarda oq-qo'yli, qora-qo'yli, yo bu va boshqa turkman qavmlari kelgan edilar. Turkmanlarning qora-qo'yli qavmidan bir guruhi (4—5 ming kishi) Hisor vohasiga borib o'rnamashganlar. Bu guruh Bobur Mirzoning yozishicha Ozarbayjon va Eron zaminidan ko'chib kelgan.

Asrlar davomida o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan o'g'uzlar va saljuq-turkmanlarining bir qismi bu davrda o'troqlashgan. Ularning ma'lum qismi yarim ko'chmanchilikda kun kechirib, chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ular o'z navbatida o'zbek etnik guruhlariga aralashib ham ketgan edilar. Shuning uchun ham bo'lsa kerak keyingi avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari yoki «Nurota turkmanlari» deb ataganlar.

Andijon viloyatining janubida, tog'li hududlarda chig'rog' (chig'rak) deb atalgan etnik guruh yashagan. Ular haqida Bobur Mirzo shunday yozgan edi: «Andijon viloyatining sahronishinlaridan bir chag'rak eldir, qalin eldur. Besh-olti ming uyluq el bordur. Farg'ona bilan Qashg'ar orasidagi tog'da bo'lurlar. Otlari ko'p va qo'ylari qalindur». Chag'raklarning ba'zi guruhleri qipchoqlar bilan birga XI asrning birinchi yarimlaridayoq Xorazm o'lkasining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Taxmin qilinishicha, chag'raklar qipchoq qabilalaridan biri bo'lib, XI—XII asrlarda Farg'ona vodiysining tog'li hududlariga kelib o'rnamashib qolgan.

Bobur Andijonning janubidagi tog'li hududlarda, chag'raklardan tashqari yana ashpor va turklar chorvador qabilalarni tilga oladi. Bu qavmlar Bobur qo'shinlarini ot va chorva mollari bilan ta'minlab turganlar. Ba'zan Bobur ularning o'zaro raqobatlari natijasida olib borgan kurashlaridan ham foydalangan.

Chingizxon boshliq mo'ng'ullar Movarounnahrda bostirib kelmasdan oldin, bu hududda qorakidan (qora-xitoy) qabila ittifoqiga mansub ayrim etnik guruhlar yashagan. Qorakidan (qoraxitoy)lar bir necha asrlar davomida mahalliy xalqlar bilan yonma-yon yashab, ular bilan aralashib o'z tillarini batamom unutib, turkiylashib qolgan edilar. Qorakidanlarning Movarounnahrda ko'chib kelgan guruhlar asosan Zarafshon vohasida, unga tutash dasht-cho'llarda, qisman Farg'ona vodiysida yashab chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Qorakidanlarning asosiy qismi XIV—XV asrlarda Yettisuvda va Dashtiqipchoqda yashab, chorvachilik bilan shug'ullanar edilar.

XIV—XV asrda yana boshqa qavmlarning ham ayrim oilaviy guruhlar Movarounnahrda yashagan bo'lishlari mumkin. Lekin bularning soni 30 ko'pi bilan 50 oiladan oshmagan. Bu oilaviy guruhlar o'z qabiladoshlari bilan kelishmasdan yoki siyosiy kurashlar tufayli yashab turgan yerlarini tashlab, Movarounnahr hukmronlaridan najot so'rab kelgan bo'lishlari ham mumkin. Yarim o'troqlikda yashovchi qavmlar va etnik guruhlar an'anaviy chorvachilik bilan birga dehqonchilik qilishlarini hisobga olib asosan vodiy atroflariga, vohalarga tutashgan cho'l va tog' oldi zonalarida joylashgan edilar. Bu joylarning bir tomoni (cho'l va adir yerlar) mol boqish uchun yaylov, ikkinchi tomoni sug'orma yoki lalmikor yerlar bo'lib, dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lgan. Bular joylashgan yerlar xujalikning ikki tarmog'ini (chorvachilikni va ziroatchilikni) deyarli baravar olib borishlari o'ng'ay bo'lgan.

Movarounnahrning yarim o'troq aholisi mamlakatni idora qilishda hamda harbiy yurishlarda Amir Temur va uning vorislariga tayanch bo'lgan. Temur tuzuklarida qayd etilishicha, Amir Temurning qaramog'ida qirq aymoq bo'lib, bulardan o'n ikkitasi, chunonchi: barlos, tarxon, argun, jaloyir, tulkichi, dulday, mo'ng'ul, suldus, tugoy, qipchoq, orlot totorlardan xon navkarlari tashkil qilgan va bular Sohibqironning eng ishonchli harbiy (gvardiyachi) qismlari hisoblangan. Qavmlarning har biri alohida hududlarga egalik qilganlar.

Bu davrda armiyani jangovar otlar bilan ta'minlash zarur bo'lgan. Zotli otlarni faqat yilqisi ko'p chorva bilan shug'ullanib kelgan qavmlar berar edi. Armiyaning asosiy qismi ham shu qavmlardan tuzilgan. Qo'shnlarni oziq-ovkat bilan, yaroq-aslaxalar, chodirlar va bir qancha boshqa buyumlar bilan ta'minlashda ham qavmlarning xissasi katta bo'lgan.

Yuqorida eslatilgan eng e'tiborli 12 ta etnik guruhning ichidan Amir Temur iste'dodli kishilarni tanlab, ularni yuqori lavozimlarga (mingboshi, amirlik va boshqa) tayinlagan. Yirik harbiy sarkardalar ko'pincha barloslardan tayinlangan. Sohibqiron jaloyir, arg'un, qipchoq va boshqa qavmlarga ham ishonch hosil qilib, ularning ichidan salohiyatli kishilarni tanlab, yuqori lavozimlarga tayinlagan.

Movarounnahrda yashovchi yuqorida nomlari qayd kilingan qabilalar Amir Temur hukmronligida juda katta imtiyozlarga ega bo'lganlar va natijada ular o'zlarini haddan tashqari erkin tutgan. Samarqandda Amir Temur saroyida XV asr boshida bo'lgan Ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo qavmlar haqida gap ketganda bular «harbiy xizmatga chaqirilganda, janglarda qatnashishlarini pesh qilib «podshoga» soliq ham to'lamaganlar» deb yozgan edi.

XIV—XV asrlarda Movarounnahrda ilk o'rta asrlarda va undan keyingi asrlarda kelib joylashib qolgan arablar ham yashar edilar. Son jihatidan ular ko'p bo'lmaganlar. Arablar asosan Buxoro vohasida, Buxoro shahrida,

Samarqand va Kattaqo'rg'on atroflarida, hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqoq holda yashagan. Arablar yarim o'troqlikda kun kechirib chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ular asosan zotli qorako'l qo'ylarni saqlar edilar.

Bu davrda Amir Temur istilo etgan mamlakatlaridan asosan Old Osiyo mamlakatlaridan bir guruh aholini Movarounnahrda ko'chirib kelgan. Klavixo so'rab olgan ma'lumotlariga ko'ra, ko'chirib keltirilganlar soni yuz mingdan oshiqroq bo'lgan. Ko'chirib kelinganlar qatorida Klavixo arablarni, turklarni, armanlarni tilga oladi. Klavixo ma'lumotlariga qo'shimcha tarzda biz shuni ta'kidlaymizki ko'chirib kelinganlar orasida Eronlilar ham oz bo'lmagan albatta.

Ko'chirib keltirilganlarning asosiy qismini hunarmand-noiblar, olim-fuzalolar va boshqalar tashkil qilgan. Masalan, Damashqdan sohibqiron har xil ipakli matolarni to'qiydigan ustalarni va shularga o'xshash toifadagi hunarmandlarni ko'chirib kelgan edi. XV asrda yashab o'tgan tarixchi Fosih Xavofiyning qayd qilishicha, Xorazmdagi quruvchilar va hunarmand ustalar qatorida yurt oqsoqollari va bu yurtning nomdor kishilari ham ko'chirilgan. Shahrisabzda qad ko'targan Oq saroy Xorazmdan ko'chirib kelingan ustalar qo'li bilan qurilgan.

Ko'chirib keltirilganlar asosan Samarqand atroflarida, hamda Zarafshon vohasining bir qancha tumanlariga joylashtirilgan. Bularning ko'pchiligi Movarounnahrda abadiy qolib, keyinchalik mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Ko'chirib keltirilganlarning ayrimlari (masalan eroniylar) guruhlariga bo'linib yashab, o'z elat nomlarini keyingi asrlarda ham saqlab qolganlar. Bularning ayrimlari o'z yurtlariga qaytib ketgan bo'lishlari ham mumkin.

Amir Temur o'z yurtida (Movarounnahrda) yashovchi turli qavmlar va elatlarni axil yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rgan. U qavmlar va elatlararo nizolarga yo'l qo'ymagan. Kimki sadoqat bilan sidqidildan davlatga,

hukmronga xizmat qilsa sohibqironning nazar-e'tiboridan chetda qolmasdi. Sotkznnlarni, o'g'ri va bekorchi daydilarni qattiq ta'qib ostiga olib, ularni, qaysi tabaqadan bo'lishidan qat'iy nazar, jazoga tortgan.

Yuqorida aytganimizdan xulosa qilib aytish mumkinki, Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda o'zbeklarning asosini muqim yashovchi turkiy tilli aholi tashkil qilgan.

O'zbek elatining tarkibida yarim o'troqlikda kun kechiruvchi etnik guruhlarining ham bo'lganligini yuqorida aytgan edik. Bular XIV—XV asrlar davomida ham etnik nomlarini va urug'-aymoqlarga bo'linish tartibini saqlab qolish bilan birga xo'jaliklariga va joyda, moddiy madaniyatlariga oid ayrim hususiyatlarini ham saqlab qolgan edilar.

O'zbek xalqining tarkibiga mo'ng'ul tilli aholining ham turkiylashgan guruhleri kirgan. Ma'lumki mo'ng'ullarning asosiy qismi shu asrlarda Mo'ng'ulistonda yashar edilar.

Chingizxon bosqinlaridan keyin ularning ayrim guruhleri Chig'atoy ulusining sharqiy mintaqalariga (Yettisuvda, Sharqiy Turkistonga) kelib joylashgan edilar. Bular mahalliy aholi ta'sirida til jihatidan turkiylashib, yuqorida aytganimizdek, mug'ul nomini olgan. Temur tuzugida eslatilgan mug'ul etnik guruhi shu kelgindilardan bo'lgan.

Mug'ul guruhleri an'anaviy chorvachilikni davom ettirganlar. Ammo qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan aholining ta'sirida mug'ul guruhlarining madaniyatida, turmush tarzida, tilida va ruhiyatida keskin o'zgarishlar yuz beradi. XIV—XV asrlarga kelib ular Movarounnahrning barcha turkiy aholisi qatori, o'zlarini turk yoki turk-chig'atoy deb nomlashi ularning hayotida keskin o'zgarishlar yuz berganligidan dalolat beradi.

II-Bob: XIV-XV asrlarda Movarounnahrda etnik jarayonlar va o'zbek adabiy tilining shakllanishi

2.1.XIV-XV asrlarda Movarounnahrda etnik jarayonlar

G'arbiy Qoraxoniylar (ulug' xonlar) davlati davrida shakllangan o'zbek xalqi tarixi XIII asr boshlariga kelib Movarounnaxrda siyosiy vaziyat birmuncha murakkablashganligi bilan harakterlanadi. 200 yil davom etgan Qoraxoniylar hukmronligi Xorazmshoh Muhammad tomonidan tugatildi. Bu bilan cheklanmagan Muhammad Xorazmshoh endi o'z nazarini Sirdaryoning quyi xavzalariga qaratdi. U ko'chmanchi qipchoqlar ustiga harbiy yurishlar qilib, garchi ularni o'ziga tobe qila olmasada, talonchilik bilan shug'ullanib, aholi tinchligini buzdi. Xuddi shu kezlarda Ili daryosi sohillarida yashovchi naymanlar kuchayib, qoraxitoylar davlati harobalarida Kuchlikxon boshliq yangi nayman davlatini barpo etdilar. Naymanlar Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi qorakidan, qipchoq, qarluq, qangli va boshqa turkiygo'y qabilalar ustiga harbiy yurish qildi, bu joylarda yashab kelayotgan musulmon aholi talandi va qishloqlar vayron qilindi, mol-mulklar talab ketildi.

Naymanlarning shafqatsizligidan xo'rlangan qipchoq va qangli sardorlari yordam so'rab Chingizxonga murojaat qiladilar. Osiyoda ikkita qudratli, bir-birlariga raqobatchi davlatlarning paydo bo'lishi har ikki tomonni bo'lajak harbiy to'knashuvlarga olib kelishi aniq edi. XIII asr boshlarida yuz bergan bu murakkab vaziyat, nihoyat, O'tror fojiasini keltirib chiqaradi.

O'rta Osiyo xalqlari ustiga uyushtirilgan mug'ullar bosqini mintaqa qishloq va shaharlarini vayron qildi, bu zaminda asrlar

davomida rivojlanib kelayotgan yuksak dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatini bir necha yuz yillarga izdan chiqardi, shafqatsiz qirg'inbarotlar tufayli mamlakat xuvillab qoldi. Dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatgan ayrim shaharlar (masalan, Samarqand, Urganch, Xo'jand) aholisining faqat to'rtidan biri qoldi, holos. Jon saqlab qolgan mahalliy xalq (o'zbek va tojiklar) og'ir iqtisodiy sharoitda yashaganlar.

Ziroatchilikdan olingan hosil ham mug'ullar tomonidan tortib olinardi. Voha atrofida ko'chib yurgan chorvadorlar soni ham keskin kamayib ketdi.

Mug'ullar bosqinidan keyin Movarounnaxr va unga qo'shni viloyatlar aholisi qariyb yarim asr davomida avvalgi holatini tiklay olmaganlar. Jon saqlab qolgan oz sonli aholi esa o'z tarkibiga ko'ra, asosan turg'un bo'lib, ular tarkibi o'zgarmay saqlanib qoldi. Vohalar atrofida ko'chib yurgan chorvadorlar esa keskin kamayib, ularning ko'pchiligi (mol-qo'ylaridan ajralib xonavayron bo'lganlari) shahar va qishloqlarga ish istab kirib keladilar va mahalliy aholiga aralashib o'troqlashib ketadilar. Manbalarda yozilishicha, ularning ko'plari o'z etnik nomlarini ham unutish darajasiga borib yetadilar. Chunki o'z qavmidan ajralgan etnik guruhlarining taqdiri shunday tugagani tarixdan ma'lum. Shuningdek, mug'ullar bosqinidan keyin ancha vaqtlargacha Movarounnaxrga yangi etnik guruhlarining kirib kelishi to'xtagan.

Ma'lumki, XIII asrning oltmishinchi yillariga kelib Chingizxon imperiyasi zaminiga zil keta boshlagach, Ili daryosining janubi-sharqiy mintaqalaridan to Amudaryogacha bo'lgan hududlarda Chig'atoy davlati vujudga keladi. Uni harbiy jihatdan himoya qilish

uchun har biri ming uyli turk-mong'ul qabilalar O'rta Osiyo hududlariga kirib keladilar. Ular barlos, jaloyir, qavchin va arlot qabilalari bo'lib, jaloyirlar Angren xavzasi va Xo'jand atrofiga kelib o'rnashadilar¹.

Chig'atoy ulusining sharqiy qismida (Yettisuv va Sharqiy Turkistonda) yashovchi mug'ul qabilalari allaqachon turklashgan bo'lishiga qaramay, qadimgi mug'ul an'analarini unutmay, ularga amal qilib keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ular Chig'atoy ulusining Movarounnaxrda yashovchi qardosh qavmlarini mensimay, qaraunas (aralashgan-metis) deb ataganlar. Monarounnaxrning mahalliy aholisi esa Yettisuv va sharqiy Turkistonda yashovchi ko'chmanchi mug'ullarni mas'hara qilib "jete"lar (bosqinchilar) deb ataydilar. Movarounnaxrda yashovchi turklashgan mug'ullar asta-sekin mug'ul atamasini unutib, o'zlarini "Chig'atoy" deb atay boshladilar. Keyinchalik bu nom Movarounnaxrlik o'zbek va tojiklarga — o'troq aholiga nisbatan qo'llandi.

Mug'ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrning oltmishinchi yillarigacha) Movarounnaxrga mug'ul va turklashgan mug'ul qabilalarining kirib kelishi jadallashadi. Shu asrlarda olchin, dug'lat, mong'ul, suldo'z, uyrot, baxrin, markit, qo'ng'rot kabi mug'ul qavmlarining ayrim guruhlarini kelib o'rnashadilar va ularning kambag'al qismi mahalliy aholining madaniy-xo'jalik ta'sirida o'troqlashib ketadilar. XIV asr o'rtalarida ularning katta qismi shu qadar mahalliy aholi bilan aralashib ketgan edilarki, ular faqat

¹ XIV asrning ўrtalarida жалойир қабиласининг катта бир гурҳи шимолий Эрон ҳудудларига жойлашиб, уерда Жалойирлар давлатини (1356-1411 йиллар) тузадилар.

turkiyda so'zlashardilar. Ibn Batutaning xabar berishicha, Chig'atoy ulusi g'arbiy qismining sultonlari Kebekxon (1318-1326) va Tarmashirin (1326-1334) turk tilida erkin so'zlashganlar.

Ta'kidlash joizki, XIII-XV asrlar ichida Movarounnaxrga kirib kelgan turklashgan mug'ul qabilalari Mug'ulistondan chiqib, darhol bu zaminga kirib kelmagan. Ular guruh-guruh bo'lishib, avval Yenisey xavzalarida, Sharqiy Turkistonda, Dashtiqipchoq va Yettisuv viloyatlarida turkiy qabilalar bilan yonma-yon va aralashib yashaganlar, Movarounnaxrga kirib kelganida o'z tillarida emas, faqat turkiyda so'zlashardi. Ularnig katta qismi o'z ona vatanlarida, turli etno-siyosiy birliklar tarkibida qolib ketganlar. Ulardan ajralib chiqqan ayrim guruhlargina O'rta Osiyo ikki daryo oralig'idagi viloyatlarga, Xorazm va Toshkent vohasiga kelib o'rtnashganlar.

Misol uchun, qipchoqlar tarqalgan mintaqalarni ko'z o'ngimizga keltirsak, ular XIV-XV asrlarda guruh-guruh bo'lib, Shimoliy Kavkazda, Krimda, Volga bo'ylarida, O'rol tog'oldi mintaqalarda, Dashtiqipchoqning sharqiy qismida, Yettisuvda yashar edilar. Amir Temur quyi Sirdaryoda yashovchi qipchoqlarni Movarounnaxrga ko'chirgan. Ammo bu chorvador qabilalarning Movarounnaxr va Xorazmga guruh-guruh bo'lib kirib kelishi bu zaminda qadimdan yashab kelayotgan tubjoy o'troq turkiy va forsiy tilli aholi etnik tarkibini o'zgartirib yubora olmagan. Aksin-cha, bu joylardagi etnomadaniy muhit ularni o'z ta'siriga olib, o'troqlashishini tezlashtirgan. Kelib chiqishi turkiy bo'lib, allaqachonlar o'troqlashgan muqim, turg'un turklar hamda Movarounnahrning "sart" nomi ostida yuritilgan turkiyzabon o'troq aholisi Temuriylar davrida hozirgi O'zbekiston

hududlari aholisi etnik tarkibining asosini tashkil etardi.

Ma'lumki, sart atamasi etnik nom emas. Bu haqda fanda turli qarashlar mavjud, ammo uning muayyan bir etnosga tegishli ekanligi ma'lum emas. Sovet davri tarixshunosligida bu masalada V.V.Bartold qarashlari e'tiborda bo'lib keldi. Uningcha, sart atamasi tojik ma'nosini beradi. Ammo u kelib chiqishi jihatidan turkiylashgan sug'diylar bo'lib, tojik va o'zbeklarga tegishli muqim yashovchi, savdo-sotiq va hunarmand aholining yig'indi nomi ekanligi tarixiy haqiqatdir. O'rta Osiyodan sharqiy o'lkalarga savdo karvoni bilan borgan savdogarlar kelib chiqishi qaysi etnosga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, ular sartlar deb atalgan. Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida sart qadimgi turkchada savdogar ma'nosida berilgan. Dastlab sartlar forsiyda va turkiyda so'zlashgan bo'lsalar, XV1-XVII asrlardan ular faqat turkiyda, eski o'zbek tilida so'zlashganlar. Demak, sart atamasini bir xalqqa tegishli deb aytish hato hulosalarga olib keladi.

Qanglilar. Qadimgi qang'ar elatining avlodlari. Chingizxon bosqiniga qadar Xorazm va Samarqand atrofida yashaganlar. Ularning asosiy qismi Dashtiqipchoqda, Balxash ko'li atrofida, Ili daryosi sohillarida ko'chib yurgan. Ularning Dashtiqipchoq guruhlari Amir Temur davrida Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasiga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib, o'troqlashib ketadilar.

Qarluqlar. Ikki etnik qatlamdan iborat bo'lib, birinchi qatlami milodiy VI asrdan boshlab, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Toharistonda yashab, mahalliy aholi bilan qorishib, o'troqlashib ketgan. Ikkinchi qatlam qarluqlar mug'ullar davrida tashkil

topgan. Ular Ili daryosi xavzasi va Yettisuvdan Toshkent hamda Zarafshon vohalariga, Shimoliy Toharistonga kelib o'rnashib, bu yerlarda oldindan kelib qolgan urug'-aymoqlari bilan qo'shilib ketadilar. Qarluqlarning bir guruhi XV asrda Dashti-qipchoqdan Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan². Boshqa bir guruhi XVI asrida Shayboniyxon bilan Movarounnaxrga kirib kelgan. Qarluqlarga qardosh xalach va chigil qabilalari XIV-XV asrlarda Zarafshon vohasida, Toharistonda yashar edilar. Ular Movarounnaxrning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Dashti-qipchoqda qolib ketgan qarluqlar guruhi Shayboniy qo'shinlari bilan birga XVI asr boshlarida Movarounnaxrga kirib keladilar.

Arg'unlar. Sirdaryoning o'ng qirg'oq quyi xavzalarida yashovchi arg'unlarning ayrim guruhlarini VIII-XII asrlar davomida Toshkent vohasiga, Farg'ona vodiysining O'zgan atroflariga, Zarafshon vohasi va Janubiy O'zbekiston rayonlariga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib, katta qismi o'troqlashib ketadilar. Ularning bir guruhi XI asrda Xuroson hududlariga borib o'rnashadi. XIV-XV asrlarda arg'unlarning asosiy qismi Farg'ona vodiysida, Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Afg'onistonda yashagan. Ular borgan joylarining til muhitiga ko'ra, yo mahalliy aholining turklashishiga yordam bergan yoki ular ta'sirida o'z etnik nomlarini unutmagan holda forsiyzabon tojiklarga aylangan. Arg'unlar Amir Temur davlatining tayanchi bo'lgan kirk o'zbek qavmlaridan biri bo'lgan³. Ular imtiyozli katta yer egalari — tarxonlar hisoblangan. Arg'unlardan chiqqan amirlar ayrim viloyatlarda xokimlik qilganlar. Masalan, Sulton Husayn arg'un

² Бобур. “Бобурнома”. Т., 1960, 166-бет.

³ Темур тузуклари. Тошкент-1991, 86-87 бетлар.

Qorako'l tumanining xokimi⁴, Mahmud Muqim arg'un Kobul xokimi bo'lgan. Arg'unlarning yuqori tabaqali kishilari Temuriylar xonadoni bilan qarindoshlik munosabatida ham bo'lganlar. Movarounnaxrda Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgach, arg'unlarning mavqeyi tushib ketadi. Ular asosan o'troqlashib, turg'un aholi bilan qorishib ketadilar.

Dug'latlar. XIV-XV asrlarda Movarounnaxrda yashagan yirik qabilalardan yana biri dug'latlardir. Rashididdin ularni mug'ul qabila ittifoqiga kirgan turkiy qabila deydi. Bartold V.V. esa ularni mug'ul deydi. N.A.Aristov dulu va dug'lat bir xalq degan g'oyani o'rtaga tashlaydi. Dulular turkiy qabila. U holda, dug'latlar ham kelib chiqish jihatidan turkiy bo'lib chiqadi. Darhaqiqat, Turk xoqonligi inqirozga uchragach, uning tarkibida bo'lgan dulu qabilalarining bir qismi ona yurtlari Ili vodiysi, Yettisuvni tashlab, boshqa yurtlarga ketib qoladi, qolgan qismi esa ona yurtlarida yashashda davom etadi. Bu yurtlarda Chingiziyzoda Chig'atoy ulusi tashkil topgach, Chig'atoy ulusining sharqiy hududlarida Manglay Suba (quyosh tomonga qaragan yer) mulki tashkil topadi. Bu mulkka Yettisuvdan to Qashqargacha bo'lgan yerlar kirgan va Chig'atoyxon uni boshqarishni dug'latlarga topshirgan. Shunda dulu qabilalari dug'latlar boshqaruviga o'tib, manbalarda turkiy dulular mug'ul dug'lat bo'lib ketgan.

Dug'latlarning ayrim guruhleri XIV-XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Samarqand va Xisorda, Qorategin va boshqa joylarda tarqoq holda yashaganlar. Xisor dug'lat sultonlari Boburga beg'araz xizmat qilganlar.

⁴ Бобур. Бобурнома. 78 бет.

2.2.XIV-XV asrlarda Movarounnahrda o'zbek adabiy tilining shakllanishi

III-Bob: XIV -XV asrlarda Movarounnahrda siyosiy jarayonlar va uning Movarounnahr etnik tarkibini o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va metodlardan foydalanish

3.1. Yangi ped.texnologiya asosida dars o'tish (kompyuter, proyektor, ekran va mavzuga oid slaydlar) ilova qilinadi.

3.2. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimidagi islohatlar tizimini tubdan o'zgartirish, uni ilmiy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarni yaratish va amalda qo'llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog'liqdir. Ta'lim sohasidagi eng muhim bo'lib O'zbekistonda "Umumiy o'rta ta'lim, davlat ta'lim standartlari" hukumatimiz tomonidan tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi.

Bu qonunlarda har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash va kelajak avlodga yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib dars o'qitishni ta'minlashni belgilab beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda asosi vazifa qilib "Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur"⁵ligini belgilab berdi.

Bu Milliy dasturning ikkinchi (2001-2005) va uchinchi bosqichda (2005) "Ta'lim muassasalarini moddiy texnika va axborot bazasini mustaxkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi" deyilgan.⁶

Pedagogik texnologiya nima?

⁵ И.А.Каримов. Баркамол авлод Ўзбекистон келажaginiнг пойдевори. Т.1997, 36-бет.

⁶ Таълим тўғрисидаги қонун. Т, 1997 йил.

Texnologiya so'zi yunoncha –“techre” san'at va mahorat, “logos” – ta'limot, fan so'zlaridan tashkil topib, bu so'z fanga 1872 yilda kirib kelgan. lekin ba'zilarida bilan metodika aynan bir xil tushuncha ham yo'q emas. Bular o'rtasidagi farqni aniqlaydigan bo'lsaq metodika 2xil ma'noda ta'riflanadi,⁷ yana bir tomondan metodikaga fan sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, metodikaga metod va usullarning majmui sifatida qoraladi. Metodikada bir xil mazmundagi uslub va usullar qo'llanadi. Pedagogik texnologiyada esa turli xil vosita va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Demak texnologiya kengroq tushuncha ekan, chunki texnologiya metodikadan butunlay farq qilgan holda, faqat bilim berish emas, balki aniq maqsad natijaga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni hamdir. Ta'lim berayotgan o'qituvchining shaxsiy mahorati va harakteri metodikada aks etadi. Texnologiya esa qanday qilib, qaysi usul va vositalar bilan o'qitilsa, yaxshi natija berishini ko'rsatadi.

Pedagogikadan bizga ma'lum, sinf dars sistemasida o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari mavjud. Hozirgi kunda Respublikamizning ko'pchilik manbalarida avvaldan amalda bo'lgan tarixni an'anaviy usulidan foydalanib, o'qitish asoslari XVII asrda vujudga kelgan. Bu usul ta'lim tarbiyani bir xil qolipda, chetga chiqmasdan olib borishni taqozo etadi. An'anaviy dars usuli o'zining qo'yidagi belgilariga ega.⁸

O'quvchilar maktabga qadam qo'yganlarida bir xil yoshda taxminan bir xil tayyorgarlikka ega:

O'quvchilardan tarkib topgan sinf maktabni bitirgunga qadar saqlanib qoladi.

O'quvchilar oldindan tasdiqlangan yagona o'quv rejasi va dasturlari asosida belgilangan o'quv yilida va shunga ko'ra kunning ma'lum vaqtida o'qishga keladilar;

Mashg'ulotlar dars sifatida olib borilib, unda ma'lum mavzu o'qitiladi va

⁷ А.Саъдиев. “Тарих ўқитиш методикаси”. Т.1983.

butun sinf aynan bir xil material ustida ishlaydilar;

O'qituvchi yil davomida o'quvchining bilimi, malakasi, ko'nikmalarini baholab boradi va yil oxirida sinfdan-sinfga ko'chirish haqida xulosa beradi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, ana shu an'anaviy usul nima uchun bugungi kunda o'z samarasini bermay qo'ydi?

Aytish lozimki, an'anaviy dars usuli o'z yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham ega. Bu kamchiliklarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- usul bir qolipda tuzilgan bo'lib, dars soatlari ratsional tasdiqlanmagan;
- dars davomida o'quvchilarni bir-birlari bilan muloqotlari to'la yo'lga qo'yilmaydi;
- mustaqil fikrlash past darajada;
- o'qitishdan maqsadni o'quvchi belgilaydi, bolaning qiziqishi, qobiliyati to'liq hisobga olinmaydi;
- o'quvchining egallagan bilimi, malakasi, ko'nikmalari kattalar tomonidan baholanadi, o'z-o'zini yoki tengqo'rlarining baholashi yo'q.

Bu an'anaviy usul bilan o'quvchilarga zamon talablariga mos ta'lim bera olmaymiz.⁹ Darsga markaziy figura-o'qituvchi bo'lgan ta'lim jarayonida mukammal natijaga erishilmaydi. An'anaviy usul bilan davlat ta'lim standartlari darajasida bilim, ko'nikma, malakani shakllantirib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, yangi metodologik texnologiyalar izlab topish va qo'llash kerak bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida noan'anaviy dars usulini taqozo etadi.

Boshqa fanlar qatori tarix fani mutaxassislari oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biri bu tarixni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishdir. Tarixni o'qitishda pedagogik texnologiyaning bosh vazifalaridan biri davlat standartlarini har bir davrning o'z mavzusi haqida o'quvchilarni qanday bilim va malakalarga ega bo'lishini ishlab chiqishdan iboratdir. Pedagogik texnologiya nima uchun zarur? Pedagogik texnologiya bu o'qitishning yangi

⁹ Н.Сайидахмедов. Янги педагогик технологиялар. Т. 2003, 27-бет.

usuli va vositalaridan foydalanib dars o'tishdir. O'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, bilimga nisbatan extiyoj sezishga o'rgatish aynan shu pedagogik texnologiyada erishiladi. Dars jarayonida faqat o'qituvchi emas, o'quvchi ham birgalikda faol ishtirok etishi lozim. O'qituvchi boshqaruvchi ob'yekt bo'lsa o'quvchi boshqariluvchi sub'yekt bo'lish kerak. Shuning uchun ob'yekt tomonidan mo'ljallangan maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetishi, unga erishishga harakat qilish lozim. Ya'ni, o'qituvchi o'qitishdan qat'iy o'rganishga bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko'maklashishlari zarur. Demaq shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'quvchida tashabbuskorlik mustaqillik kuzatuvchanlikni, bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirishdan iborat. 9-10 sinflarda O'zbekiston tarixi kursida ham mana shunday noan'anaviy usullar – pedagogik texnologiyadan foydalanib o'qitiladi. Ma'lumki, hozirda ta'limga Axborot texnologiyalaridan ham foydalanish kirib kelmoqda. Axborot texnologiyasi bu dars davomida axborot vositalar texnologiyalardan to'liq foydalanadi. Sababi, bu yoshdagi o'quvchilarda to'liq axborot texnologiyalari ishlash ko'nikmalari shakllanib ulgurgan. Darslarda bunday texnologiyalarni hamma o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llash mumkin.¹⁰

Yangi pedagogik texnologiya mukammal usullardan iborat. Bu sinf o'quvchilariga o'ta murakkab bo'lgan yozma, debat, keystadi, matbuot konferensiyasi kabi usullarni qo'llash yaxshi natija beradi.¹¹ Chunki bu yoshdagi o'quvchilar bularni to'liq qabul qila olmaydilar. Ularni yosh xususiyatlari, bilim saviyalarini xisobga olib, bunday usullardan foydalanish zarur.

Shu o'rinda bu yoshdagi psixologik xususiyatlariga to'xtalib o'tish lozim. Shu avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashni namunali yo'lga qo'yish uchun avvalo, ularni harakter xislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash

⁹ Уша китобдан, 37 бет.

¹⁰ И.Ғ.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Т, 2004, 43-бет.

¹¹ Уша жойда, 45-бет.

lozimdir. 9-10 sinf (13-16 yosh) o'smirlik yoshida bo'ladi. Bu davrda bolalikda kattalik jarayoniga ko'chish sodir bo'ladi. "O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai-nazar, prinsip, o'zligini anglash, baxolash va xokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Bu yoshda psixologik jixatdan eng muhim xislat – voyaga yetish, kattalik xissining paydo bo'lishi aloxida ahamiyatga ega. Kattalik xissi aqliy faoliyatda qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi". Demak biz, bu yoshdagi o'quvchini texnologik xususiyatlarini xisobga olib, asosan uni mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratib beramiz.

Shulardan kelib chiqqan xolda, men ushbu bitiruv malakaviy ishimda ya'ni **XIV -XV asrlarda Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlar va uning Movarounnahr etnik tarkibi** mavzusini o'quvchilarga o'rgatishda O'zbekistonda tarix fani mavzularini o'rganishda foydalanish mumkin deb o'ylayman,¹² hamda ushbu kursda qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir pedagogik texnologiya usullarini keltirmoqchiman. O'zbekiston tarixi darslarida "Savol javob-zakovat", "Test va texnik vositalardan foydalanish kabi usullardan foydalanib o'qitish mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari uchun eng ko'p foydalanish mumkin bo'lgan vosita kinodir.

1.O'qituvchi hikoyasini emotsionalligini va ahloqiy ta'sirini kuchaytiradi. O'rganilayotgan materialni ahloqiy tarbiyaviy ta'sirini oshiradi.

2.O'quvchilarning tarixiy xodisalar mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi.

3.O'quvchi ongiga tez ta'sir qilib, to'g'ri xulosaga kelishni ta'minlaydi.

O'qitish samarasini oshirishdagi yana bir yangi usullardan biri – bu dars jarayonida texnika vositalaridan foydalanishdir.¹³ Texnika vositalari (radio, kino, nazorat vositalari) o'tgan asrni 40-50 yillarida darsga joriy etilgan. Bugungi kunga kelib ham o'qitishda uning ahamiyati oshib bormoqda. Chunki ular o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ta'lim samaradorligini oshishida muhim rol

¹² Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. Т, 1999, 2-махсус сон.

o'ynaydi. Ayniqsa televideniye, kino, lengafon, filmmoskop, kodoskoplardan foydalanishning o'z metodlari mavjud. Shundan darsda kinodan foydalanishda quyidagi metodlarga e'tibor berilishi kerak:

1.O'quvchi kinofilmdan foydalanishdan avval uni o'zi albatta ko'rishi kerak.

2.Kinofilm dars mazmuniga singib borishi, darsning asosiy maqsadiga muvofiq bo'lishi lozim.

3.Kino materiallarini namoyish qilishdan avval o'quvchilarga bir-ikki savol berish, keyin shu savol yuzasidan suhbat o'tkazish kerak.

4.Kino materialining hammasi ta'limning boshqa vositalari kitob, harita, rasm, o'quvchining xikoyasi bilan birga olib borish kerak.

5.Darsda foydalanilgan kinofilm yuzasidan uyga vazifa berish kelgusi darsda uni so'rash lozim.

6.O'qituvchi o'z fani yuzasidan mavjud bo'lgan kino filmlar fondidan yaxshi bilishi, har bir film haqida o'zining mustaqil fikrlariga ega bo'lishi lozim.¹⁴

Demak, biz yuqori sinflarda kinodan foydalanishimiz mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar aynan mana shu yo'nalishga ya'ni kinoga yaxshi munosabat bildiradi.

Ma'lumki o'qitish tizimida test usuli ham joriy qilingan. Bu tizim o'quvchilarni o'z ustida ishlash malakalarini, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi. 9-10 sinflarga bilim saviyalariga mos tarzda testlar tuziladi. Test usuli o'quvchilarni o'zlashtirishini aniqlashga, darsda ko'proq o'quvchini baholash, umumlashtirish darslaridan foydalaniladi. Testlar tushunarli va aniq bo'lishi kerak.

Bunday usullarning ahamiyati shundaki, o'quvchilar darsda mavzuning asosiy mazmunini ko'rish, eshitish va mushohada orqali anglaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yangi pedagogik texnologiyalarni

¹³ А.Саъдиев. Тарих ўқитиш методикаси. Т, 1983, 70-бет.

darsda qo'llash dars samaradorligini oshiradi, hamda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yanada faollashtiradi.¹⁵

¹⁴ Уша китобда. 73-бет.

¹⁵ Ўзбекистон ахборотномаси. Т, 1996-2000 йиллар.